

XAYVONOT OLAMINING BIOSFERAVIY AXAMIYATI

Farg'ona davlat universiteti

G.Maxsudova

D.Mirzadavlatova

A.Nabiyeva

N.Ne'matullayeva

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada hayvonot olamining biosferada tutgan o'rni, uning moddalar aylanishi, energiya oqimi, ekotizimlar barqarorligi hamda inson hayoti bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Hayvonlar faunasi biosferaning muhim tarkibiy qismi sifatida tabiiy muvozanatni saqlashda beqiyos ahamiyatga ega ekani ilmiy asoslarda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: hayvonot olami, biosfera, ekotizim, oziq zanjiri, biorang-baranglik, tabiiy muvozanat.

Kirish: Biosfera — Yerdagi hayot mavjud bo'lgan umumiy qobiq bo'lib, unda tirik organizmlar o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi. Hayvonot olami (fauna) ushbu tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Hayvonlar o'simliklar, mikroorganizmlar va inson bilan birgalikda moddalar va energiya aylanishini ta'minlaydi hamda ekotizimlar barqarorligini saqlab turadi.

Biosferaning asosiy qismi xisoblangan xayvonot dunyosi o'simliklar quyosh nuri ta'sirida xosil qilgan organik moddalar hamda bir – birlari bilan oziqlanib, moddalarning biologik aylanib yurishida va umuman, yerda modda aylanishida muhim rol o'ynaydi. Bu bilan hayvonot dunyosi tabiatning rivojlanishida juda xilma – xil ta'sir ko'rsatadi.

Bunga hayvonlarning juda ham harakatchanligi va ular turlarining nixoyatda ko'pligi sababdir. Yuksak o'simliklar turlari 500 ming bo'lsa, hayvonlar turlari, 2,5 mln.dan ortiqroq.

Hayvonlarning tabiatda moddalar va energiyaning biologik aylanib

yurishidagi roliga kelganda shuni aytilish mumkinki, hayvonlar landshaftlar o'simliklar organik moddalarini birdaniga oxirgi maxsulotlargacha parchalashga qodir emas. Har bir hayvon turi o'simliklarning biror qismini istemol qilib, uning tarkibidagi ba'zi bir organik moddalarni parchalaydi. Hayvonot olamining ana shunday murakkab oziqlanish zanjirlari o'simlik moddasini bora – bora butunlay parchalab, tarkibiy qismlarga ajratib yuboradi. Hayvonlar hayoti o'simliklarga bog'liq bo'lgani xolda, o'z navbatida o'simliklarga katta ta'sir ko'rsatadi. O'simliklar orqali esa tuproq tipi, tarkibi strukturasining tarkib topishiga katta rol o'ynaydi. Masalan tuproqlarning va ularning unumdorligining tarkib topishi ma'lum darajada hayvonlarning o'simlik (yomg'ir chuvalchangi, chumoli, termitlar, umurtqali yer qazuvchilar va boshqalar) faoliyati bilan bog'liqdir. Bu hayvonlar o'simlik qoldiqlarini parchalab, tuproq strukturasining tarkib topishida qatnashadi, atmosfera bilan tuproq o'rtasidagi gaz almashinishini ta'minlaydi, tuproqning g'ovakligini va suv sig'imini oshiradi, har xil tuproq mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Trillion-trillion hashorotlar o'lib, tuproqlarni har xil mikro elementlar bilan boyitadi. Hayvonlar ko'pgina o'simliklarning rivojlanishida, shuningdek, o'simliklar turkumlarining tarkib topishida katta rol o'ynaydi. Masalan: ko'pchilik o'simliklar faqat hashorotlar yordamida changlanadi. Ko'pgina mevalar, sabzovot, ba'zi bir g'alla o'simliklari, yo'ngichka va boshqa bir qancha ekinlarning xosili ma'lum darajada hashorotlarga bog'liqdir. Agar hashorotlar bo'lmaganda yer yuzi o'simlik qoplamida igna barglilar va boshqa ochiq urug'lilar, qirqbo'g'inlar va moxlar ko'plikni tashkil etgan bo'lur edi. Shuningdek ko'pgina o'simliklarning xududiy tarqalishi xam hayvonlar faoliyatiga bog'liq. Qushlar o'simlik urug'larini juda uzoqlarga olib boradi. Masalan: Kedrovka qushi kedr daraxtining Sibirning juda katta qismiga tarqalishiga imkon beradi.

Qushlar ayniqsa yirtqich qushlar hosilni kemiruvchilardan saqlaydi. Masalan: boy qush bir yilda 1000 tagacha sichqon ushlaydi. Shu bilan 0,5 t g'allani saqlab qoladi. O'simliklarni zararkunandalardan saqlash qushlar bilar birga ba'zi bir hashorotlar ham qatnashadi. Masalan: O'rmon chumolining zararkunanda

hashorotlarni qirishidagi ahamiyati benihoya katta. Molyuskalarning suvni tozalovchi filtrator sifatidagi roli katta va turli – tumandir. Marjon poliplari tropik dengizlarning toza suvlarida ko‘p sonli marjon orollarini va riflarini ko‘rib, o‘ziga xos tabiiy komplekslarini vujudga keltiradi.

Yer bag‘rida juda keng tarqalgan ba’zi tog‘ jinslari (oxaktosh, bo‘r) va foydali qazilmalar (selitra) ham hayvonlar faoliyati bilan bog‘liq. Hayvonlar ba’zan o‘ziga xos landshaftlarni vujudga keltiradi. Masalan: Shimoliy Amerikada qunduzlarning suv rejimini o‘zgartirishi tarqalgan. Hayvonlarning ayrim turlari ko‘proq hashorotlar, o‘simliklar uchun zararkunanda xisoblanib, ba’zan ma’lum o‘simlik turlarining katta maydonlarida nobud bo‘lishiga olib keladi. Hayvonlar landshaftlarning zaruriy komponentlaridan biri bo‘lib, ularning tabiiy komplekslariga ta’siri asosan o‘simliklar va tuproqlar orqali namoyon bo‘ladi. Hayvonlarning hayoti o‘simliklarning hayoti bilan uzviy bog‘langan va hayvonlar sonining o‘zgarishi o‘simliklarning va landshaft umumiy xolatining o‘zgarishiga ta’sir qiladi.

Hayvonlar o‘simlik va tuproqlarga ta’sir ko‘rsatishdan tashqari o‘zlarining har xil turlari o‘rtasida ham muntazam o‘zaro aloqalari mavjud. Hayvonot olamining landshaftdagi ta’sir va aloqalari tabiiy kompleksini dinamik muvozanatiga o‘z aksini topadi.

Hayvonot olami inson xayotida ham katta rol o‘ynaydi. Hayvonlarning inson hayotidagi eng katta ahamiyati iqtisodiy xo‘jalik ahamiyatidir. Kishilar o‘zlariga kerak bo‘lgan juda ko‘p xom ashyo va oziq –ovqat mahsulotlarini hayvonlardan oladi. Bundan tashqari yovvoyi hayvonlar xonaki hayvonlar uchun ularning zotini yaxshilash va yangi zotlar yetishtirishda manbaa xisoblanadi. Juda ko‘p dori-darmonlar hayvon mahsulotlaridan olinadi.

Hayvonot olami tiklanadigan tabiiy resurslar gruppasiga kirib, qulay sharoitda tiklanish xususiyatiga ega. Lekin kirib tugatilgan hayvon turlarining tiklash butunlay mumkin emas.

Planetamiz hayvonot dunyosi hozirgi ma’lumotlarga ko‘ra, 2,5 mln turdan iborat. Bular orasidagi hashorotlar birinchi o‘rinda so‘ng qushlar va sut

emizuvchilar turadi. Hayvonlar turlarining tarkibi va soni ilgari zamonlardan buyon har xil sabablarga ko'ra o'zgarib kelmoqda. Tabiiy sharoitning o'zgarishi ta'sir ostida ayrim turlarning qirilib ketishi va tarqalishining qisqarishi sodir bo'lgan. Lekin tabiiy o'zgarish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, juda sekin, boradi, Bunday o'zgarishning havfi katta emas. Ammo turlar sonining o'zgarishi inson ta'sirida va butunlay yo'qolishi ancha tez ro'y beradi. Bu ta'sir qadim zamonlardan boshlangan, lekin keyingi davrda, ayniqsa kuchaydi. Inson xo'jalik faoliyatining ta'siri natijasida hayvon turlarining soni qisqardi, ba'zilar esa butunlay yo'qolib ketdi. Insonning hayvonot dunyosiga bevosita ta'siri asosan go'sht, mo'yna, yog' va boshqa maxsulotlar olish uchun hayvonlarni ov qilishdan iboratdir. Inson paleolit davrida olov va qurol ishlatishni o'rgangandan buyon hayvonlarni ko'plab ovlab, ularga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Lekin yer yuzining turli joyida insonning hayvonlarga ta'siri turli vaqtda va turli darajada ro'y beradi.

Xulosa: Hayvonot olami biosferaning ajralmas va faol tarkibiy qismi bo'lib, moddalar aylanishi, energiya oqimi va ekotizim barqarorligini ta'minlaydi. Uni muhofaza qilish — nafaqat tabiatni, balki inson kelajagini saqlash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вернадский В.И. Биосфера. – Москва, 1987.
2. Одум Ю. Экология. – Москва, 2000.
3. Реймерс Н.Ф. Табиатдан фойдаланиш асослари. – Москва, 1994.